**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2021 – yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 – yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 10512,0 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 9957,5 mlrd. so‘mni (104,5 %), o‘rmon xo‘jaligi – 472,0 mlrd. so‘mni (101,3 %), baliqchilik xo‘jaligi – 82,5 mlrd. so‘mni (110,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Sirdaryo viloyatining ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.



**10512,0** — **Sirdaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so‘m**

01 — **9957,5** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02 — **472,0** — **O‘rmon xo‘jaligi**

03 — **82,5** — **Baliqchilik xo‘jaligi**

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2021– yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 94,7 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,8 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Tuman va shaharlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2021– yilning yanvar- dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xovos (1804,9 mlrd. so‘m) va Boyovut (1500,7 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin shahri (33,4 mlrd. so‘m), Yangiyer shahri (36,3 mlrd. so‘m), va Guliston shahri (250,5 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (104,4 %) yuqori o‘sish sur’atlari Oqoltin (108,9 %), Guliston (106,3 %), Sardoba (106,3 %), Boyovut (106,0 %), tumanlarida kuzatildi. Shirin shahri (100,3 %), Guliston shahri (101,8 %), Xovos (101,0 %), Mirzaobod (101,6 %) Yangiyer shahri (102,3 %), Sayxunobod (103,8 %) tuman, shaharlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 9653,2 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 5513,9 mlrd. so‘mni (104,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 4139,3 mlrd. so‘mni (103,8 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

55,0 %
Dehqonchilik mahsulotlari



45,0 %
Chorvachilik mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 55,1 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 37,4 % i – fermer xo‘jaliklariga, 7,5 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Xovos tumanida (66,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shirin shahrida (95,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (31,1 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shirin shahrida (0,0 %), Guliston shahrida (0,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Xovos tumanida (32,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xovos (1,1 %), Sayxunobod (1,6 %) tumanlarida qayd etildi.

## Dehqonchilik

2021– yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5513,9 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,1 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 470,0 ming t. donli ekinlar (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Jami don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 84,3 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 321,0 ming t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 51,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Sirdaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 63,8 ming t. kartoshka (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 86,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Sirdaryo viloyati bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 260,8 ming t. poliz mahsulotlari (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz mahsulotlari yetishtirishning ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmidan 65,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Siradaryo viloyati bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 42,6 ming t. mevalar va rezavorlar (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 50,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum










- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 14,0 ming t. uzum (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 80,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi)xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 4139,3 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 68,0 ming t. go‘sht (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 103,7 % ga), 370,8 ming t. sut (104,1 % ga), 181,5 mln. dona tuxum (109,8 %), ishlab chiqarildi va 5932,9 t. baliq (106,9 % ga) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*












2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 68,0 ming t. go‘sht (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 103,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



# Sirdaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

Hajmi, t.




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 – yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 370,8 ming t. sut (2020– yilning yanvar-dekabrga nisbatan 104,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln.dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 181,5 mln.dona tuxum (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 109,8 % ) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

### Hajmi, t.




### O‘sish sur’ati




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 5932,9 t. (2020– yilning yanvar-dekabriga nisbatan 106,9 % ga) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 64,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yining 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 90,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 11,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 85,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri kelishi, otlar umumiy sonidan 19,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 77,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 52,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 39,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 480,4 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 20063 boshga (4,4 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha, jami yirik shoxli qoramollarning 90,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– yanvar holatiga koʻra, sigirlarning umumiy bosh soni 170,9 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda sigirlar bosh soni – 5161 taga (3,1 %) koʻpaydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**Oʻsish surʼati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– yanvar holatiga koʻra, sigirlar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 89,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 362,3 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 13370 boshga (3,8 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 85,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 15197 taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 713 taga (4,9 %) ko‘paydi.

## Otlar









2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 77,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3065,1 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 488389 taga (19,0 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Boshsonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 52,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Sirdaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 67-236--86-25